



JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI

**Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li**

*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) v.b.dotsent*

[Tel:+998914680710](tel:+998914680710)

*E-mail:nomozovnomozov2@gmail.com*

<https://orcid.org/0009-0007-6640-284>

Yarim asr mobaynida internet-makon turli resurslar evaziga nihoyatda boyidi. Bugungi kunda bu resurslar inson uchun zarur bo'lgan ne'matlarni yaratish, hayot sharoitlarini qulaylashtirish, turli xo'jalik va obyektlar faoliyatini optimallashtirish, davlat organlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy ta'minot, sport, transport, aloqa, madaniy va maishiy xizmatlarni takomillashtirish, ma'naviy ishlab chiqarish jarayonini jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish borasida keng qo'llanilmoqda. Virtual resurslarning mazkur sohalarda qo'llanilishi tahlili internet-makonning haqiqatan ijtimoiy voqelikning o'ziga xos ko'rinishiga aylanib ulgurganini namoyon etadi. Mazkur paragrafda internet-makon resurslaridan tizimli ravishda foydalanilayotgan asosiy sohalarni ko'rib chiqamiz.

*Birinchidan*, internet-makon resurslaridan raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda foydalanilayapti. Raqamli iqtisodiyot deganda internet-makon resurslaridan foydalangan holda amalga oshirilgan iqtisodiy faoliyat nazarda tutiladi. Odatda bu faoliyat elektron biznes yoxud elektron tijorat shaklida olib boriladi. Elektron biznes deganda telekommunikatsion tarmoqlar yordamida yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish, logistika, mahsulot va xizmatlar sotuvi, elektron tijorat deganda esa biznes-sheriklar o'rtasida elektron kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirilgan mahsulotlar va xizmatlar almashinuvi tushuniladi<sup>4</sup>.

Bugungi kunda internet-makon resurslarini keng ko'lamda tasarruf etayotgan raqamli iqtisodiyot qisqa muddatda vujudga kelgan fenomen emas. Mutaxassislar uning shakllanishini qator industrial inqiloblar bilan bog'laydilar. Xususan, raqamli iqtisodiyot mashinalar yordamida ishlab chiqarishga asos solgan birinchi sanoat inqilobi, elektrodvigatellar yordamida ommaviy ishlab chiqarishni vujudga keltirgan ikkinchi sanoat inqilobi, elektronika va axborot texnologiyalari yordamida ishlab chiqarishni avtomatlashtirgan uchinchi sanoat inqilobi muvaffaqiyatlarining mantiqiy intihosidir. Shu sababdan olimlar bugungi kunda rivoj topib borayotgan raqamli iqtisodiyotni to'rtinchi sanoat inqilobi deb ham atamoqdalar<sup>5</sup>.

<sup>4</sup> Қаранг: Сидорова О.В. Электронный бизнес в современной экономике.// Проблемы современной экономики, 2010, №2.- 52-с.

<sup>5</sup> Қаранг: Сафонов А.Ю. Развитие цифровой экономики в мире.// Московский экономический журнал, 2019, №9.- 152-с.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

“Yangi asrda, - deb yozadi davlat rahbari, - raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oldi. Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5 foizini ta'minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizidan ko'prog'i uning hissasiga to'g'ri kelmoqda”<sup>6</sup>. O'zbekiston ham mazkur umumjahon tendensiyasidan chetda qolgani yo'q. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari mahalliy bozorining rivojlanayotgani, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarning tashkil etilayotgani, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarning amalga oshirilayotgani, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalning ishga tushgani, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimi yaratilayotgani, ijtimoiy sohaning raqamlashtirilayotgani shundan dalolat beradi<sup>7</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasining qabul qilinishi bu boradagi sa'y harakatlarga takrorlanmas va tizimli xarakter baxsh etdi.

Ko'rinib turibdiki, jahonning turli mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda internet-makon resurslarining iqtisodiy faoliyatda qo'llanilishi raqamli iqtisodiyot deb atalmish yangi fenomenning vujudga kelishiga, uning orqali mehnat samaradorligi oshirilishiga, bozor ishtirokchilari raqobatbardoshligi ta'minlanishiga, yangi ish o'rinlari vujudga kelishiga, pirovardida iqtisodiyotning intensiv rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

*Birinchidan*, internet-makon resurslaridan raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda foydalanilayapti. Raqamli iqtisodiyot deganda internet-makon resurslaridan foydalangan holda amalga oshirilgan iqtisodiy faoliyat nazarda tutiladi. Odatda bu faoliyat elektron biznes yoxud elektron tijorat shaklida olib boriladi. Elektron biznes deganda telekommunikatsion tarmoqlar yordamida yo'lga qo'yilgan ishlab chiqarish, logistika, mahsulot va xizmatlar sotuvi, elektron tijorat deganda esa biznes-sheriklar o'rtasida elektron kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshirilgan mahsulotlar va xizmatlar almashinuvi tushuniladi<sup>8</sup>.

Bugungi kunda internet-makon resurslarini keng ko'lamda tasarruf etayotgan raqamli iqtisodiyot qisqa muddatda vujudga kelgan fenomen emas. Mutaxassislar uning shakllanishini qator industrial inqiloblar bilan bog'laydilar. Xususan, raqamli iqtisodiyot mashinalar yordamida ishlab chiqarishga asos solgan birinchi sanoat inqilobi, elektrodvigatellar yordamida ommaviy ishlab chiqarishni vujudga keltirgan ikkinchi sanoat inqilobi, elektronika va axborot texnologiyalari yordamida ishlab chiqarishni avtomatlashtirgan uchinchi sanoat inqilobi muvaffaqiyatlarining mantiqiy intihosidir. Shu

<sup>6</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.:Ўзбекистон, 2021.- Б.177.

<sup>7</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”// lex.uz/docs/5030957.

<sup>8</sup> Қаранг: Сидорова О.В. Электронный бизнес в современной экономике.// Проблемы современной экономики, 2010, №2.- 52-с.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

sababdan olimlar bugungi kunda rivoj topib borayotgan raqamli iqtisodiyotni to'rtinchi sanoat inqilobi deb ham atamoqdalar<sup>9</sup>.

“Yangi asrda, - deb yozadi davlat rahbari, - raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes va elektron tijoratni nazarda tutuvchi raqamli iqtisodiyotning shakllanishi tendensiyaviy tus oldi. Jahonning yetakchi mamlakatlarida raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotning 4-5 foizini ta'minlamoqda, jahondagi savdo aloqalarining 15 foizidan ko'prog'i uning hissasiga to'g'ri kelmoqda”<sup>10</sup>. O'zbekiston ham mazkur umumjahon tendensiyasidan chetda qolgani yo'q. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari mahalliy bozorining rivojlanayotgani, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarning tashkil etilayotgani, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarning amalga oshirilayotgani, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalning ishga tushgani, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimi yaratilayotgani, ijtimoiy sohaning raqamlashtirilayotgani shundan dalolat beradi<sup>11</sup>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasining qabul qilinishi bu boradagi sa'y harakatlarga takrorlanmas va tizimli xarakter baxsh etdi.

Ko'rinib turibdiki, jahonning turli mamlakatlarida, xususan O'zbekistonda internet-makon resurslarining iqtisodiy faoliyatda qo'llanilishi raqamli iqtisodiyot deb atalmish yangi fenomenning vujudga kelishiga, uning orqali mehnat samaradorligi oshirilishiga, bozor ishtirokchilari raqobatbardoshligi ta'minlanishiga, yangi ish o'rinlari vujudga kelishiga, pirovardida iqtisodiyotning intensiv rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

*Ikkinchidan*, internet-makon resurslaridan davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatda keng foydalanilayapti. Bugungi kunga kelib, davlat organlari ham, siyosiy faoliyat subyektlari ham o'z faoliyatlarida internet-makon resurslaridan tobora ko'proq foydalanishga intilmoqdalar. Masalan, barcha mamlakatlarda mazkur resurslar davlat boshqaruvini takomillashtirish omili sifatida baholanmoqda. Keyingi yillarda turfa yurtlarda elektron hukumat elementlarini yaratishga e'tiborning oshib borayotgani shu sababga borib taqaladi. O'zbekistonda ham 2015 yildan buyon “davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi”<sup>12</sup> shakllantirilmogda.

Elektron hukumat internet-makon resurslaridan siyosiy maqsadlarda foydalanishning yagona sohasi emas. Ayni paytda barcha davlatlar siyosiy qarorlar qabul qilishda asos bo'ladigan ma'lumotlarni to'plashda ham internet imkoniyatlaridan foydalanmoqdalar. Bir tomondan, davlat rahbarlarining real vaziyatni bilish maqsadida internetga murojaat

<sup>9</sup> Қаранг: Сафонов А.Ю. Развитие цифровой экономики в мире.// Московский экономический журнал, 2019, №9.- 152-с.

<sup>10</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.:Ўзбекистон, 2021.- Б.177.

<sup>11</sup> Қаранг: Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Рақамли Ўзбекистон-2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”// lex.uz/docs/5030957.

<sup>12</sup> Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Электрон ҳукумат тўғрисида”// lex.uz/docs/2833860.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

qilishi hollari ko'paymoqda. "Men har kuni internetni o'qiyman. Kim qanday gapirganini vaqtim boricha bir-ikki soat qo'limga qalam olib, o'zimga yozib olaman. Baribir, o'nta fikrdan to'qqiztasi to'g'ri bo'lib chiqadi",<sup>13</sup> - deb ta'kidlaydi mamlakatimiz Prezidenti. Ikkinchi tomondan esa, davlat organlari muayyan ijtimoiy muammo sabablarini va ko'lamini aniqlash, bu borada ko'rilayotgan choralarni fuqarolarga yetkazish maqsadida internet resurslaridan foylanmoqdalar.

Internet-makon resurslari fuqarolarni siyosiy faoliyatga jalb etishda ham keng qo'llanilayapti. Bu holat 2021 yilda mamlakatimizda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovlarida yaqqol namoyon bo'ldi. "Hozirda, - deb yozadi Markaziy saylov komissiyasi a'zolaridan biri, - milliy saylov jarayonida zamonaviy AKT keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Saylov jarayonini boshqarish axborot tizimi (SJBAT), saylovchilarning yagona elektron ro'yxati (SYAER), saylov jarayonlarini videokuzatuv, interaktiv xizmatlarga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti (masalan, "O'zingizni saylovchilar ro'yxatidan toping", "Saylov uchastkasini aniqlash va o'zgartirish" va boshqalar) va "Saylov-2021" maxsus veb-portali, elektron pochta, maxsus telegram-bot, feycbuk, instagram, yutub va tvitterdagi tezkor xabarlar, saylov komissiyalari a'zolari tezkor foydalanishi uchun maxsus mobil ilovalar shular jumlasidandir"<sup>14</sup>.

Barcha mamlakatlarda internet-makon resurslari yordamida davlat xizmatlari ko'rsatish imkoniyatlari kengaymoqda. Masalan, mamlakatimizda shu maqsadlarda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) tashkil qilingan bo'lib, undagi xizmatlar soni ham, foydalanuvchilar soni ham muttasil oshmoqda. Xususan, 2022 yilga kelib, ko'rsatiladigan onlayn xizmatlar soni 355 taga, portaldan foydalanuvchilar soni esa 3 million kishiga yetdi<sup>15</sup>. Xullas, yangi asrga kelib, davlat boshqaruvi va siyosat internet-makon resurslari realizatsiya qilinadigan yana bir sohaga aylandi.

*Uchinchidan*, internet-makon resurslaridan ommaviy axborot vositasi sifatida foydalanilayapti. Ma'lumki, insoniyat o'z tarixida mudom axborotga ehtiyoj sezib yashagan. Voqelikka moslashish, uni o'zgartirish, hayotiy faoliyatni amalga oshirish zaruriyati avvalo uning xususida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishni taqozo qilardi. Biroq asrlar davomida mazkur ehtiyoj og'zaki tarzda yetkazilgan ma'lumotlar hisobiga qondirib borildi, xolos. Yozuvning kashf etilishi bu boradagi vaziyatni sifatan o'zgartirishga zamin hozirladi. Endilikda axborotlarni subyektdan obyektga yozma tarzda yetkazish imkoni paydo bo'ldi. Aholi savodxonligining oshishi, poligrafik jihozlarning kashf etilishi tom ma'noda ommaviy xarakterga ega bo'lgan ilk axborot vositalari – gazetalarning vujudga kelishiga zamin hozirladi. Radio va televideniyeining ixtiro qilinishi ommaviy axborot vositalarining klassik uchligini (gazeta, radio, televideniye)

**13** «Хамма айтади: ОАВни ёпиб қўй, деб. Йўқ, ёпмайман» - президент сўз эркинлиги ҳақида.//[www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz), 2023, 24 февраль.

<sup>14</sup> Раҳимова Г. Сайловчилар ягона электрон рўйхати: такомил ва таракқиёт.// [saylov.uz](http://saylov.uz), 2021, 9 октябрь.

<sup>15</sup> Электрон давлат хизматларидан фойдаланувчилар сони 3 миллионга етди.// [e-gov.uz](http://e-gov.uz), 2022, 26 ноябрь.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shakllantirdi. Yigirmanchi asr so'nggiga qadar ushbu uchlik nafaqat kishilarga muayyan axborotlarni yetkazish borasida, balki ularning ongi va dunyoqarashini shakllantirish bobida ham hukmronlik qildi. Butun asr mobaynida gazeta, radio, televideniye xizmatlaridan foydalanuvchilar soni muttasil oshib bordi. Biroq asr intihosida vaziyat keskin o'zgardi: internetning vujudga kelishi klassik ommaviy axborotlariga muqobil bo'lgan, axborotlarni tayyorlash, saqlash va uzatish borasida mutlaq ustuvorlikka ega yangi vositalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Umuman olganda, internet-makondan joy olgan millionlab saytlarning asosiy funksiyalaridan biri axborot yetkazish bilan bog'liq. Ayni paytda mazkur funktsiyani o'z faoliyatining asosiy yo'nalishiga aylantirgan saytlar ham mavjud. Ular turkumiga internet-nashrlar, internet-jurnallar, yangiliklar bloglari, ijtimoiy tarmoqlar va shu kabilar kiradi. Bu manbalarning axborot uzatishdagi faoliyati operativligi, uzluksizligi, shaklan turli-tumanligi bilan tavsiflanadi, shu boisdan ulardan foydalanuvchilar soni intensiv ravishda oshib bormoqda. O'zbekistonda ham kun.uz, xabar.uz, qalampir.uz kabi internet-nashrlar borgan sari ommalashmoqda. Bundan tashqari, XXI asrga kelib, jahondagi ko'plab nufuzli gazeta va jurnallar internet-makon resurslaridan foydalangan holda o'z elektron versiyalarini chiqara boshladilar. Ahamiyatli jihati shundaki, ushbu versiyalar dastavval gazeta va jurnallarning elektron muqobili bo'lgan bo'lsa, keyinchalik mutlaqo mustaqil mediamanbaga aylandi. Internet-makon resurslari mazkur nashlarga vizual, matnli va ovoqli ma'lumotlarni uyg'unlashtirish imkonini berdi<sup>16</sup>.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XXI asrda internet-makonning turli resurslar evaziga boyishi uning qo'llanish sohasini nihoyatda kengaytirdi. Bugungi kunda internet-makon resurslaridan raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda, davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatni takomillashtirishda, ommaviy axborotlarni yetkazishda, ta'lim va tibbiy xizmatlar ko'rsatishda, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va tarqatishda, subyektlar o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yishda, shaxslararo muloqotni tashkil etishda, kraudsoringda samarali foydalanilayapti. Virtual resurslarning turli sohalarda tizimli ravishda qo'llanilayotgani internet-makon ijtimoiy voqelikning o'ziga xos ko'rinishiga aylanganidan dalolat beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акрамова Ф.А. Ижтимоий психология.- Т., 2007.
2. Андреева И. М. Информационная культура личности как новая учебная дисциплина и новое направление культурологических исследований.// Информатизация и проблемы гуманитарного образования: Тезисы докл. Между-нар. науч. конф.- Краснодар, 1995.- С. 6-8.

<sup>16</sup> Каранг: Торопов И.П. Переход печатных СМИ в интернет-пространство.// <http://www.radnews.ru>, 2020, 26 апреля.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

3. Nurillaevich, Omonov Bahodir, et al. "Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System." *Journal of Pharmaceutical Negative Results* (2022): 984-989.
4. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." *Development and innovations in science* 2.7 (2023): 8-14.
5. Nomozov, Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *Farg'ona davlat universiteti* 3 (2023): 67-67.
6. НОМОЗОВ, Х. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ." *Философия и право* 26.3 (2023): 232-235.
7. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ." *The Role of Exact Sciences in the Era of Modern Development* 1.3 (2023): 4-9.
8. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." *Research Focus International Scientific Journal* 2.6 (2023): 105-110.
9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "AXBOROT XURUJINING O 'SMIRLAR HAYOTIGA TA'SIRI." *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI* (2023): 1285-1287.
10. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA INTERNETNING ROLI." *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL* 3 (18) (2022).

